

## **ZAMONAVIY BAHOLASH TIZIMINING AFZALLIKLARI**

*Abbasova Vasila Zubaydullayevna*

*Toshkent shahar Yangiheyot tumani*

*330-umumiy o'rta ta'lim maktabi Geografiya fani o'qituvchisi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar bilimini baholashga zamonaviy yondashuvlarning mohiyati va mazmuni shuningdek, formativ va summativ baholashning asosiy farqlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Formativ baholash, testlar, viktorinalar, og'zaki savollar, diagnostik baholash, summativ baholash.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida o'zgarishlar, jahon standartlariga javob berish uchun jadal rivojlanishlar yuz bermoqda. Jumladan ta'lim tizimida ham. Davlatimiz rahbari tomonidan 2021 yil 24 dekabrda oily ta'lim tizimini tub ijobiy o'zgarishlarga olib keladigan oily ta'lim muassasalariga moliyaviy, akademik va tashkiliy boshqaruvda mustaqillik berish borasida ikkita tarixiy qaror imzolandi. Bu esa o'z navbatida, oily ta'lim muassasalari boshqaruvida yangicha tizim asosida yondashuvni talab etadi. Baholash ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ta'lim sifatini hamda o'quvchilarni bilim darajalarini doimiy ravishda nazorat qilib borish ta'lim jarayoniga muhim yangiliklar kiritishga asos bo'ladi. Bugungi kunda yangi tizim asosida baholashning turli shakllari ishlab chiqilgan va talim jarayoniga taqdim etilmoqda. Shulardan biri formativ baholashdir. Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz. O'qitish jarayonida

o'qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to'plami "Formativ baholash" (shakllantiruvchi) deb nomlanadi. Bu o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan o'quv jarayonining bir qismi bo'lib, o'quv va o'qitish usullarini o'zgartirish orqali o'quvchining tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan. Formativ baholash o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham o'quvchining faoliyati va o'rganishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri va batavsil mulohazalar berishga harakat qiladi. Bu o'quv jarayonida o'quvchilarning ehtiyojlari va taraqqiyotni kuzatadigan doimiy jarayon. Formativ baholashning asosiy vazifasi o'quv yili uchun qo'yilgan maqsadlarning bajarilishi yoki bajarilmaganligini aniqlash. Shuning uchun o'qituvchilar ham o'quvchilar ham o'quv yili davomida erishmoqchi bo'lgan o'quv maqsadlarni aniq bilishlari kerak. O'quv maqsadlari rasmiy shaklda o'qituvchi ish rejalarida aks etadi. Yoki o'qituvchi norasmiy shaklda o'quvchilar bilan birgalikda o'quv maqsadlarni aniqlab olishi mumkin bo'ladi. Formativ baho o'quvchilar ta'lim jarayonida faol rol o'ynashi kerak degan fikrdan boshlanadi.

T/r	Izoh	Ball
1	<b>Darsda ishtiroki:</b> - o'quvchi darsning hamma qismlarida faol, savollarga aniq va to'g'ri javob bersa, guruh va juft bo'lib ishlashda ham faollik darajasi yuqori bo'lsa - 6 ball; - o'quvchi darsning ayrim qismlarida juda faol, savollarga to'g'ri javob beradi, ayrim hatolarga yo'l qo'ysa - 5 ball; - o'quvchi darsda faol lekin savollarga ikkilanib javob bersa, guruh, juft bo'lib ishlaganda faollik darajasi past - 4 ball; - o'quvchi dars davomida faol ishtirok etsa va to'g'ri bo'lmagan fikrlar bildirsa - 3 ball; - o'quvchi dars davomida savollarga noto'g'ri javob bersa, o'quvchilar orasida darsdagi faolligi sezilarli bo'lmasa - 2 ball; - o'quvchining darsda ishtiroki sezilarli bo'lmasa - 1 ball.	6 ball
2	<b>Uyga vazifalarni bajarishi:</b> - uyga vazifani to'liq va hatolarsiz bajargan bo'lsa - 4 ball; - uyga vazifani bajargan, hato va kamchiliklar mavjud bo'lsa - 3 ball; - uyga vazifani qisman bajargan, hatoliklar ko'p bo'lsa - 2 ball; - uyga vazifani deyarli bajarmagan bo'lsa - 1 ball; - uyga vazifani bajarmagan bo'lsa - 0 ball;	4 ball
<b>JAMI</b>		<b>10 ball</b>

Summativ baholash. Summative Assessment deganda o'quvchilarni baholash tushuniladi; bu natijaga qaratilgan. Bu ishtirokchilarga vaqti-vaqti bilan, odatda kurs, muddat yoki bo'lim yakunlanganda beriladigan baholash jarayoning bir qismidir. Maqsad -o'quvchilarning bilimlarini tekshirish, yani ular o'zlari o'rgatgan materialni

qay darajada o'rganganliklarini tekshirish. Summativ baholash dars yoki dastur samaradorligini baholashga intiladi, o'quv jarayonini tekshiradi va xokozo. O'quv dasturining sifatini ko'rsatadigan va maktablarda reyting uchun asos yaratadigan ko'rsatkichlar sifatida olingan ballar, ballar yoki foizlar.

Shu o'rinda formativ hamda summativ baholashni bir-biridan farqli tomonlarini ko'rib chiqamiz. Formativ va summativ baholashning asosiy farqlari.

1. Formativ baholash o'quv jarayonida talab qilinadigan ma'lumotlarni taqdim etadigan, o'qitishni moslashtiradigan turli xil baholash tartib-qoidalarini anglatadi. Summativ baho o'quvchilarning bilimini baholash standarti sifatida belgilangan.

2. Formativ baholash diagnostik xususiyatga ega, Summativ baho esa baholovchi hisoblanadi.

3. Formativ baholash-bu o'rganish uchun baholash, Summativ baholash- bu ta'limni baholash.

4. Formativ baholash oylik yoki chorakda doimiy ravishda amalga oshiriladi. Boshqa tomondan, Summativ baholash faqat kurs tugaganidan so'ng ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshiriladi.

5. Formativ baho o'quvchilarning bilimini oshirish uchun o'tkaziladi. Aksincha Summativ baho o'quvchilar faoliyatini baholash uchun o'tkaziladi.

6. Formativ baho o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish uchun qabul qilingan. Summativ baholashdan farqli o'laroq o'quvchilar bilimini baholashga qaratilgan. 7. Formativ baholash baholari summatifik bahodan kam, chunki FAda olingan baholar o'quvchining tushunarli ekanligi haqida SAning baholari o'quvchilarning ko'tarilishi yoki ko'tarilmasligini belgilaydi. BSB va CHSBlarni baholash uchun kundalik.com da o'qituvchilar uchun testlar berilgan tayyor. O'quvchilar bu testlarni yechishda mustaqil fikrlab olgan bilimni amalda qo'llab ishlaydi. Bu fan o'qituvchilarga juda katta yordam bo'ladi. Testni baholashda oldingi testlarda 1ta to'g'ri javobga 2 ball , bu hamma savolning to'g'ri javobiga 2 baldan berib 25 savolga hammasi 50 ball edi. Hozirgi testlarda savolning murakkablik darjasiga qarab ballar oshib boradi. Amaldagi baholash

tizimida ko'ra o'quvchi qanday bilim va ko'nikmalarni egallaganini baholash mumkin bo'lgan aniq mezonlar mavjud emas. **An'anaviy baholash tizimi** o'quvchining darsga tayyorgarligini muntazam tekshirish va baho qo'yish bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, uning so'zlariga ko'ra, barcha o'quvchilar bilimini baholash bitta o'qituvchining shaxsiy munosabati va bilimidan kelib chiqib amalga oshiriladi, baholash jarayoni to'liq inson omiliga bog'liq, zamonaviy talablarga mos keladigan individual yondashuv va aniq baholash mezonlari mavjud emas. Shularni inobatga olgan holda o'quvchilarni yangi baholash tizimi mamlakatimizdagi 500 ta maktabda joriy qilindi. Yangi tizim zahirida **4K usuli** — ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, muloqot va kooperatsiya ya'ni hamkorlik yotadi. Tizim quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- **Reproduktiv daraja (bilim).** Reprodukativ darajadagi topshiriqlar mazmuni o'quvchilarning, o'quv materialini qayta ishlamagan holda esda saqlab qolish qobiliyatini aniqlab beruvchi qonunlar, xossalari, formulalar, tushunchalar va atamalarning mohiyatini o'rganish, eslab qolish va idrok etishga mo'ljallangan.

- **Produktiv daraja (qo'llash).** Topshiriqlar mazmuni mavzuni o'zlashtirishda fanning qonun va qonuniyatlari, xossalari va formulalarini qo'llash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish, bir qancha qonun va qonuniyatlardan foydalanishdan iborat. Shu bilan birga, umumlashtirish va xulosa qilish talab etiladi.

- **Mulohaza yuritish.** Intellektual darajadagi topshiriqlarning mazmuni o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llashni, qonun va qonuniyatlardan foydalangan holda tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirishni talab qiladi.

НОВАЯ СИСТЕМА ОЦЕНИВАНИЯ

MARKAZI

### ШКАЛА ПЕРЕВОДА БАЛЛОВ В ОЦЕНКУ

Сумма баллов	Оценка	Степень усвоения
100-86	5	Отлично
85-71	4	Хорошо
70-56	3	Удовлетворительно
55-0	2	Не удовлетворительно

Yangi baholash tizimiga ko'ra yig'ilgan ballarning 5 ballik shkalaga o'tkazilishi. Manba: Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi. Maktab o'quvchilari chorak davomida 100 ball to'plashga ulgurishi mumkinmi, degan savolga markaz direktori o'quvchilar haftasiga kamida 2 soat o'qitiladigan fanlardangina 100 ball to'plashi kerakligini ta'kidladi. Haftasiga 1 soat ajratilgan fanlardan (masalan, tasviriy san'at, musiqa) olti oyda (ikki chorak davomida) 100 ball to'plash talab etiladi.



Yangi baholash tizimiga ko'ra 100 ball o'qituvchi tomonidan formativ baholash (10 ball) va yig'ma baholash (90 ball) asosida to'planadi.

T/r	Izoh	Ball
1	<p><b>Darsda ishtiroki:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quvchi darsning hamma qismlarida faol, savollarga aniq va to'g'ri javob bersa, guruh va juft bo'lib ishlashda ham faollik darajasi yuqori bo'lsa – 6 ball;</li> <li>- o'quvchi darsning ayrim qismlarida juda faol, savollarga to'g'ri javob beradi, ayrim hatolarga yo'l qo'ysa – 5 ball;</li> <li>- o'quvchi darsda faol lekin savollarga ikkilanib javob bersa, guruh, juft bo'lib ishlaganda faollik darajasi past – 4 ball;</li> <li>- o'quvchi dars davomida faol ishtirok etsa va to'g'ri bo'lmagan fikrlar bildirsa – 3 ball;</li> <li>- o'quvchi dars davomida savollarga noto'g'ri javob bersa, o'quvchilar orasida darsdagi faolligi sezilarli bo'lmasa – 2 ball;</li> <li>- o'quvchining darsda ishtiroki sezilarli bo'lmasa – 1 ball.</li> </ul>	6 ball
2	<p><b>Uyga vazifalarni bajarishi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- uyga vazifani to'liq va hatolarsiz bajargan bo'lsa – 4 ball;</li> <li>- uyga vazifani bajargan, hato va kamchiliklar mavjud bo'lsa – 3 ball;</li> <li>- uyga vazifani qisman bajargan, hatoliklar ko'p bo'lsa – 2 ball;</li> <li>- uyga vazifani deyarli bajarmagan bo'lsa - 1 ball;</li> <li>- uyga vazifani bajarmagan bo'lsa - 0 ball;</li> </ul>	4 ball
<b>JAMI</b>		<b>10 ball</b>

Yig'ma baholash uchun topshiriqlar markazda tayyorlanadi va mamlakatdagi yangi tizim joriy etilgan barcha maktablarga tarqatiladi. Topshiriqlar testlar, loyihalar, laboratoriya ishlari va boshqalardan iborat. 100 balldan 10 ball o'qituvchi tomonidan qo'yiladi. Bu darsga tayyorgarlik, uy vazifasini bajarish va dars vaqtidagi faollik uchun beriladi. O'qituvchi bitta o'quvchiga 3–4 ta shunday baho qo'yishi va chorak yakunida ulardan o'rtacha ball chiqarishi mumkin. Qolgan 90 ballni o'quvchining o'zi to'playdi. *O'qituvchi tomonidan qo'yiladigan 10 ball o'quvchining darsdagi ishtiroki (6 ball) va uyga vazifani bajarganlik (4 ball) uchun beriladi.* Baholashning yangi tizimi o'quvchiga bahoni nima uchun olgani, nimani tuzatish kerakligi, yuqori ball olmagan taqdirda, nimaga ko'proq e'tibor qaratishi kerakligini ko'rish imkonini beradi. “Endi faqatgina nimanidir shunchaki bilish muhim emas. Fikrlash, bu bilimlarni amalda qo'llash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Loyihani ishlab chiqishda markaz ta'lim sohasidagi xalqaro tajribaga (Singapur, Finlyandiya va boshqa mamlakatlar) tayangan. U, shuningdek, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlaridagi maktablarda ham o'quvchilar bilimini baholashning mazkur tizimiga allaqachon o'tilganini qayd etdi. “O'zbekistonda bu tizimni o'rganish va ishlab chiqish uchun 1,5 yil vaqt ketdi. To'plangan tajribadan kelib chiqib, joriy yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 500 ta umumta'lim maktabida baholashning mezonga asoslangan tizimini joriy etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Har bir maktabda

Ixtisoslashtirilgan maktablar agentligi tizimidagi maktablardan biridan jalb etilgan, mezonga asoslangan baholash bo'yicha tajribaga ega hamda yangi tizimga moslashishda o'qituvchi va o'quvchilarga ko'maklashish vazifasi yuklatilgan metodist (to'liq shtatdagi xodim) va trener mavjud. Yangi baholash tizimiga to'liq o'tish vaqt talab etadi. Qozog'istonda, uning so'zlariga ko'ra, mezonga asoslangan baholash tizimiga to'liq o'tish uchun 10 yil kerak bo'ldi. Ushbu ikki baholash protsedurasining asosiy farqi shundaki, shakllantiruvchi baholash o'quv jarayonini bir turi bo'lsa, summativ baholash bu baholash jarayonidir. Balansli baholash ikkalasiga ham asoslanadi, bu o'qituvchilarning keyingi bosqichlari to'g'risida zarur ma'lumotlarni va o'quvchilarning kontent standarti bo'yicha bilimlarini o'lchashni ta'minlaydi. Agar rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimiga nazar solsak misol uchun Buyuk Britaniyada xodimlarga (o'qituvchilarga) kattalar (rahbarlar) tomonidan ta'lim va tarbiya sharoitida ta'limni baholash bilan bog'liq holda yaxshi amaliyotni o'rganish va rivojlantirishga yordam beriganligi uchun Ta'lim, baholash va sifatni ta'minlash (TAQA) bo'yicha mukofot mavjud. Demakki baholash ta'limni rivojlantirish uchun asosiy jarayondir. Ayniqsa formativ baholash ta'lim sifati haqida aniq ma'lumotlar beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, N. A. (2022). ILMIIY TADQIQOT OLIB BORISH KOMPETENTLIGI–BO 'LAJAK O 'QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 601-612.
2. Baydjanov, B. K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Theoretical & Applied Science*, (7), 171-178.
3. Maksudov, U. K. (2020). CHARACTERISTIC OF THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOLKLORE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(7), 407-412.
4. Maksudov, U. K. (2020). ISSUES OF NATIONAL VALUES AND SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF POSITIVE PSYCHOLOGY. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 394-396).
5. O'rinova, N. M., & Yo'Ldosheva, D. A. Q. (2021). Oliy o'quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va samarali yo'llari. *Science and Education*, 2(12), 755-766.